

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

UDK: 81'272:81'373.45(=512.133=112.2)

ORCID: 0009-0009-7966-6916

O'ZBEK VA NEMIS OILAVIY NUTQIDA TABU VA EVFEMIZMLARNING SOTSIOLINGVISTIK HAMDA MADANIY FUNKSIYALARI

Kaxarov Qobil Shuhrat o'g'li

Farg'ona davlat universiteti dotsenti – f.f.f.d., (PhD)

k.sh.kakharov@pf.fdu.uz +99893 484 70 00

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada o'zbek va nemis oilalarida lingvistik tabu va evfemizmlarning shakllanish sabablari hamda ularning sotsiolingvistik va madaniy funksiyalari tahlil qilinadi. Maqolada asosan oilaviy muloqotda uchraydigan “noqulay” mavzular (o'lim, jinsiy hayot, og'ir kasalliklar, pul, siyosat) va ularning yumshatilgan ifoda vositalari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida Germaniya va O'zbekistondagi suhbatlar, badiiy asarlar tahlili hamda shaxsiy kuzatuvlar orqali materiallar to'plangan va qiyosiy tahlil qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek jamiyatida din va an'anaviy “uyat” tushunchasi, nemis jamiyatida esa siyosiy to'g'ri so'zlash (political correctness) va shaxsiy hayot daxlsizligi kuchliroq ekan. Maqola chet tili o'qitish, tarjima amaliyoti hamda madaniyatlararo muloqotda tabu va evfemizmlardan xabardor bo'lishning ahamiyatini yoritadi. Kelgusida miqdoriy tahlillar yordamida ushbu mavzuni yanada kengaytirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlanadi.

KALIT SO'ZLAR. Lingvistik tabu, evfemizm, sotsiolingvistika, oilaviy muloqot, nemis oilasi, o'zbek oilasi, madaniy farqlar.

СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ФУНКЦИИ ТАБУ И ЭВФЕМИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И НЕМЕЦКОЙ СЕМЕЙНОЙ РЕЧИ

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматриваются причины формирования лингвистических табу и эвфемизмов в узбекских и немецких семьях, а также их социолингвистические и культурные функции. Основное внимание уделено «неудобным» темам в семейном общении (смерть, сексуальные отношения, тяжёлые болезни, финансы, политика) и способам их смягчённого выражения. Материал исследования был собран в ходе бесед в Германии и Узбекистане, анализа художественных произведений и личных наблюдений, после чего был применён сравнительный метод. Результаты показывают, что в узбекском обществе значительную роль играет религия и традиционное чувство стыда, а в немецком обществе преобладают

принципы политкорректности и неприкосновенности личной жизни. Автор подчеркивает важность учёта табу и эвфемизмов в процессе обучения иностранным языкам, практики перевода и межкультурных коммуникаций. Также отмечается перспектива расширения исследования с помощью количественных методов в будущем.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Лингвистические табу, эвфемизмы, социолингвистика, семейная коммуникация, немецкая семья, узбекская семья, культурные различия.

SOCIOLINGUISTIC AND CULTURAL FUNCTIONS OF TABOOS AND EUPHEMISMS IN UZBEK AND GERMAN FAMILY DISCOURSE

ANNOTATION. This article examines the reasons behind the formation of linguistic taboos and euphemisms in Uzbek and German families and explores their sociolinguistic and cultural functions. The research focuses on “sensitive” topics commonly encountered in family communication – such as death, sexuality, serious illnesses, finances, and politics – and on the ways they are softened through indirect expressions. Data were collected through interviews in Germany and Uzbekistan, analyses of literary texts, and personal observations, followed by a comparative assessment. The findings suggest that religion and traditional notions of “shame” play a more prominent role in Uzbek society, while German society tends to emphasize political correctness and respect for personal privacy. The article highlights the importance of understanding taboos and euphemisms in foreign language teaching, translation practice, and intercultural communication. It also notes the potential for expanding this research using quantitative methods in the future.

KEYWORDS. Linguistic taboos, euphemisms, sociolinguistics, family communication, German family, Uzbek family, cultural differences.

KIRISH. Tabu va evfemizm turli xalqlar nutq madaniyatida uchraydigan umumiy lingvistik hodisalardir. Ular, asosan, jamiyatdagi axloqiy me‘yorlar va ijtimoiy cheklovlar tufayli yuzaga kelib, “noqulay” yoki “uyatli” deb hisoblanadigan mavzularni bevosita tilga olishdan qochish yoki yumshatib ifodalash zaruratidan kelib chiqadi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, tabu dastlab qadimiy ijtimoiy taqiqlar sistemasini anglatgan bo‘lsa, hozirgi kunda u so‘z va iboralar sathida ham namoyon bo‘ladi. Evfemizm esa ko‘pincha shu “taqiqlangan” yoki “qo‘pol” deb topilgan tushunchalar o‘rniga o‘sha fikrni yumshoqroq shaklda ifodalash vositasi sifatida qo‘llanadi.

Mazkur tadqiqotda o‘zbek va nemis oilaviy nutqida uchraydigan tabu va evfemizmlar sotsiolingvistik hamda madaniy nuqtai nazardan qiyosiy o‘rganiladi. O‘zbek madaniyatida, ayniqsa, diniy-an‘anaviy qadriyatlar, sharqona odob va andisha kuchli ta’sir ko‘rsatsa, nemis jamiyatida sekulyar nuqtai nazar, shaxsiy hayot daxlsizligiga intilish va siyosiy to‘g‘ri so‘zlash (political correctness) an‘analari asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, oila doirasida bolalarga tarbiya berish jarayonida ba’zi mavzularni bevosita aytmaslikka intilish, bu

bilan ijtimoiy me‘yor va madaniy qadriyatlarni avloddan avlodga o‘tkazish, ushbu hodisaning muhim jihatlaridan biridir.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, til va madaniyatning o‘zaro aloqasini o‘rganishda tabu va evfemizmlar aynan lingvistik va sotsiokulturaviy chegaralarni ko‘rsatib beradi. Bir-biridan farqli jamiyatlarda qaysi mavzular, nima sababdan “uyatli” yoki “qoplon mavzu” (ko‘tarilishi noqulay) sanalishi va ularni yumshatishning qaysi usullaridan foydalanilishi haqida xulosa chiqarish, nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik, tarjima amaliyoti va chet tili o‘qitish sohalari uchun ham muhimdir. Xususan, chet tilini o‘rganishda grammatik ko‘nikmalar bilan birga, o‘sha jamiyatdagi madaniy normalar va til odobidan boxabar bo‘lish aloqa samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, o‘zbek va nemis oilalarida namoyon bo‘ladigan tabu va evfemizmlarni taqqoslash orqali, bunday lingvistik cheklovlarning din, an‘ana, siyosiy-ijtimoiy sharoit va tarbiya usullariga qay darajada bog‘liqligini aniqlash mumkin. Tadqiqot doirasida yig‘ilgan empirik misollar oiladagi norasmiy suhbatlar, ijtimoiy tarmoqlar guruh chatlari va kundalik muloqot kuzatuvlari asosida tahlil qilinadi. Bu esa tabiiy nutqiy jarayonlar, real kontekstlarda qanday so‘zlar yoki iboralar “nojoiz” deb topilayotgani, ular o‘rniga ishlatiladigan evfemizmlarning funksional xususiyatlarini ochib berish imkonini yaratadi.

Mazkur ishning asosiy maqsadi:

- O‘zbek va nemis oilaviy nutqida qaysi mavzular eng ko‘p tabu sanalishi va nega aynan shu mavzularga ehtiyotkorlik bilan yondashilishini aniqlash;
- Shu mavzularni yumshatish yoki chetlab o‘tish uchun qanday evfemizmlar qo‘llanishini tahlil qilish;
- Lingvistik tabu va evfemizmlarning oilaviy tarbiya va jamiyatdagi axloqiy me‘yorlar bilan qanday aloqador ekanini ko‘rsatish.

Keltirilgan maqsad va dolzarblikni hisobga olgan holda, ushbu ishda sotsiolingvistik tahlil usuli qo‘llanadi. Olingan natijalar esa chet tilini o‘rganish, tarjima amaliyoti hamda turli madaniyatlararo muloqotlarda tabudan xabardor bo‘lishning naqadar muhim ekanini tasdiqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tabu va evfemizmlarning lingvistik hodisa sifatida o‘rganilishi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida antropologiya va etnografiya sohalarida boshlangan. Dastlabki ilmiy izlanishlar insoniyatning qadimiy rasm-rusumlari, diniy e‘tiqodlari va ritual marosimlaridagi taqiqlarni o‘rganish orqali olib borilgan (Freyzer, 1922). Keyinchalik, Z. Freyd o‘zining psixoanalitik tadqiqotlarida tabuning psixologik ildizlari va uning shaxs ongi hamda jamiyat ongi o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirini ko‘rsatib bergan⁴⁸⁰.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan tabu va evfemizmlar avvalo so‘z tanlash va nutq odobi bilan bog‘lanadi. J. Allan va K. Burridge (2006) o‘z asarlarida “Forbidden Words” (taqiqlangan so‘zlar) tushunchasiga keng yondashib, jamiyatda ma‘lum mavzularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri

⁴⁸⁰ R.Khairullina, F.Fatkullina, Q.So, Z.Lin. Taboo As A Linguistic And Cultural Phenomenon // Social and Cultural Transformations in the Context of Modern Globalism» Dedicated to the 80th Anniversary of Turkayev Hassan Vakhitovich. – Grozny, 27-29, 2020.

nomlash odobsiz yoki xavfli deb topilishiga e‘tibor qaratadilar. Rus tilshunoslari (Krysin, 2005) ham evfemizmlarning lug‘aviy-semantik xususiyatlarini tadqiq qilib, ularni mavzuiy guruhlariga ajratish usulini taklif etgan⁴⁸¹. Ularda, asosan, o‘lim, jins, kasallik, siyosat kabi mavzularda yaqqol lingvistik cheklovlar mavjudligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Sotsiolingvistika sohasida tabu va evfemizmlar jamiyatning ijtimoiy me‘yorlarini saqlash, nutq odobini me‘yorlashtirish va “nojoiz” mavzularni boshqalarga noqulaylik tug‘dirmasdan ifoda etish vazifalarini bajaradi, deb ta’kidlanadi (Allan, BurrIDGE, 2006). Shuningdek, bunday lingvistik cheklovlar madaniyatlararo farqlarni yaqqol ko‘rsatib beradi: masalan, bir madaniyatda odobli hisoblangan so‘z boshqasida juda qo‘pol yoki kamsituvchi bo‘lishi mumkin (Samiyeva, 2018)⁴⁸².

O‘zbek tilshunosligida tabu va evfemizmlar masalasi ko‘proq diniy-an‘anaviy qarashlar, sharqona odob va tarbiya bilan bog‘liq holda izohlanadi (Ismoilova, 2015)⁴⁸³. O‘zbeklarda o‘lim, jins, tananing ayrim funksiyalari kabi mavzularni bevosita aytmaslikka intilish, ko‘pincha “uyat” va “iffat” tushunchalari orqali tartibga solinadi. Nemis tili misolida esa sekulyar madaniy kontekst, siyosiy to‘g‘ri so‘zlash (Political Correctness) va shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog‘liq cheklovlar ustunroq ekanligi qayd etiladi.

Adabiyotlar tahlilidan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tabu va evfemizmlar:

Universallik xususiyatiga ega – deyarli barcha jamiyatlarda uchraydi.

Madaniy kontekst va tarixiy an‘analarga qarab turli shaklda namoyon bo‘ladi.

Til birliklarining so‘zma-so‘z ma’nosidan tashqari, pragmatik va sotsiokulturoloik vazifalarini ham bajaradi.

Tarbiya va axloqiy me‘yorlar uzluksizligida muhim rol o‘ynaydi – oilada avloddan avlodga o‘tuvchi nutq cheklovlari va yumshatuvchi ifodalar shakllanadi.

O‘zbek va nemis oilaviy nutqida bu hodisaning xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish orqali, kelgusida chet tili o‘rganish, tarjima sohalari va madaniyatlararo kommunikatsiyani yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Ushbu tadqiqot sotsiolingvistik va madaniy-tilshunoslik yondashuvlari asosida olib borildi. Asosiy e‘tibor nemis jamiyatida yuzaga keladigan tabu va evfemizmlarning oilaviy nutqdagi namoyon bo‘lish shakllarini aniqlashga qaratildi. Shuningdek, o‘zbek jamiyatidagi o‘xshash jarayonlar bilan qiyos qilish maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlar ham to‘plandi. Metod quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Uch yil davomida Germaniyaga to‘rt marotaba ilmiy safar uyushtirildi. Har safar mobaynida nemis filologlari, sotsiologlari hamda turli kasb va ijtimoiy qatlam vakillari bilan norasmiy suhbatlar o‘tkazildi. Ushbu suhbatlar jarayonida, avvalo, nemis oilaviy muloqotida

⁴⁸¹ R.Khairullina, F.Fatkullina, Q.So, Z.Lin. Taboo As A Linguistic And Cultural Phenomenon // Social and Cultural Transformations in the Context of Modern Globalism» Dedicated to the 80th Anniversary of Turkayev Hassan Vakhitovich. – Grozny, 27-29, 2020.

⁴⁸² S.Samiyeva. Taboo and euphemism in uzbek and tajik languages // World Bulletin of Social Sciences (WBSS), 2023. № 27. – P. 64-68.

⁴⁸³ H.Ismoilova, Z.Xatamova, D.Burxonova. Classification and Types of Euphemisms // Journal INX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.Vol. 6, 2020. – P. 53-57.

qay mavzular “noqulay” deb topilishi, ularni qanday shaklda yumshatish (evfemizmlar) va aynan qaysi cheklovlar bilan bevosita aytishdan tiyilish (tabu) yuzaga kelishi haqida savollar berildi. Uchrashuvlar yakunida suhbat mazmuni asosida qaydlar tuzilib, odatiy evfemizm sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan atama va iboralar xronologik tarzda ro‘yxatga olindi.

Norasmiy suhbatlar asosan yakka tartibda yoki kichik guruhlar (2-4 kishi) shaklida olib borildi. Muloqotda aksariyat hollarda ochiq savollar berilib, ishtirokchilar bergan javoblar konspekt tarzida yozib borildi. Ba’zi vaziyatlarda nemis mutaxassislaridan an’anaviy tabular, xususan, shaxsiy hayot va pul masalalariga oid rasmiy adabiyotlarda qanday tavsiyalar berilishi haqida izohlar so‘raldi. Shuningdek, suhbat davomida “Bu so‘z yoki mavzuni oilaviy suhbatda qanday qilib yumshatasiz?” kabi qo‘shimcha savollar berilib, ishtirokchilardan real misollar keltirish iltimos qilindi.

Germaniya bo‘ylab olib borilgan stajirovkalar chog‘ida kutubxonalar va adabiy to‘plamlarda tabu yoki evfemistik unsurlar ifodalangan zamonaviy hamda klassik asarlar saralab olindi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar, shaxsiy hissiy kechinmalar, kasalliklar, o‘lim, jinsiy munosabatlar, moliyaviy holat va shaxsiy hayotga doir nozik masalalar yoritilgan sahnalar alohida ajratib o‘rganildi. Ushbu badiiy parchalar doirasida leksik-semantik xususiyatlari, madaniy konnotatsiyasi va uslubiy vazifasiga ko‘ra lingvistik vositalar tasnif qilindi. Har bir topilgan so‘z yoki ibora kontekstda tabu yoki evfemizm sifatida baholanib, uning madaniy asoslari izchil tahlil etildi.

Germaniya stajirovkalari natijasida to‘plangan konspektlar va yozma manbalardagi so‘z hamda iboralar avval mavzular bo‘yicha guruhlab chiqildi. Shundan so‘ng, guruhlar “o‘lim”, “kasallik”, “pul masalasi” yoki “siyosiy mavzu” kabi kodlar bilan belgilandi. Ayrim hollarda mazkur kodlarning o‘zbek tilida mavjud analoglari ham keltirildi. Natijada, nemis tili uchun xos bo‘lgan evfemizm va cheklovlar o‘zbekcha namunalarga qiyosan tekshirib chiqildi. Olimlar va stajirovka doirasidagi mutaxassislarning fikrlari “mazmuniy tahlil” (content analysis) usuli bilan o‘rganilib, umumiy xulosalar shakllantirishga asos bo‘ldi.

Ma’lumotlarning aksariyati norasmiy suhbatlar asosida to‘plangani bois, ishtirokchilarning mazmunni sub’ektiv talqinda ifodalash ehtimoli borligi inobatga olindi. Bunda shaxsiy hayot, pul yoki siyosatga oid masalalarning ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra ehtiyotkorlik bilan muhokama qilinishi ham imkon doirasidan chetda qoldirilmadi. Shuningdek, Germaniya jamiyatining turli mintaqa va ijtimoiy qatlamlarga bo‘linganligi har bir suhbatdoshda bu jarayon turlicha kechishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bois to‘plangan natijalar asosan o‘rtacha tendensiyaning aniqlashga xizmat qilishi kutiladi.

Qayd etilgan yondashuvlar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar o‘zbek va nemis tilidagi oilaviy nutq tabiatiga xos bo‘lgan tabu va evfemizmlar xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda aniq so‘rovnomalar (survey) hamda katta hajmli matn korpuslari yordamida miqdoriy tahlil usullari kengroq qo‘llash rejalashtirilmoqda. Shu tariqa, tadqiqot bosqichma-bosqich davom ettirilib, Germaniya stajirovkalari, badiiy manbalar tahlili va shaxsiy kuzatuvlar natijasida to‘plangan materiallar puxta o‘rganilib, oilaviy muloqotda tabu va

evfemizmlarning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni yanada chuqurroq yoritilishi nazarda tutiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qayd etilgan suhbatlar, badiiy asarlar tahlili va qiyosiy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, har ikkala madaniyatda (o‘zbek va nemis) odatda quyidagi mavzular “noqulay” yoki “tabu” sifatida ajralib chiqadi:

O‘lim va dafn (marhumni eslash, o‘lim holatini ifodalash uslublari)

Jinsiy hayot (tana funksiyalari, intim munosabatlar)

Og‘ir kasalliklar (saraton, ruhiy kasallik va boshqalar)

Pul hamda moliyaviy ahvol

Siyosat va rasmiy shaxslar

Shaxsiy hayot va oilaviy munosabatlar

Suhbat ishtirokchilari ham, badiiy asarlarda ifodalangan qahramonlar nutqi ham aynan shu sohalarda bevosita nomlashdan cheklanish yoki yumshatib ifodalashga (evfemizm) moyil ekanini tasdiqladi.

Nemis jamiyatida kasallik yoki o‘lim kabi mavzularda “muloyim” leksik birliklar (masalan, entschlafen – “uyquga ketmoq”, ableben – “hayotni tark etmoq” kabi) ko‘p uchrashi aniqlandi⁴⁸⁴. Shuningdek, jinsiy mavzularda miteinander schlafen (“birga uxlash”), sich nah kommen (“yaqinlashish”) kabi bilvosita ifodalar ishlatiladi.

O‘zbek jamiyatida “vafot etdi”, “olamdan o‘tdi” (o‘lim haqida), “nomusni saqlash” yoki “uyatli ishlar” (jinsiy munosabat haqida) kabilar keng tarqalgan. Pul masalasini ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘rash odobsizlik sanalib, “ro‘zg‘or o‘tib turibdi”, “shukur” kabi umumiy gaplar bilan cheklaniladi.

Nemis suhbatdoshlar shaxsiy hayotning daxlsizligini yuqori qadrlashlari bois, oilaviy muammolar, daromad miqdori yoki siyosiy mavzular haqida oshkora gapirishdan ko‘ra, mavzudan chetlab o‘tishni afzal ko‘rishlarini qayd etishdi. Ular shaxsiy sirlarni muhokama qilishni “xususiy makon”ga oid deb bilishadi.

O‘zbek suhbatdoshlar o‘z navbatida, pulni so‘rash yoki siyosiy mavzularda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanqidiy fikr bildirishni hamisha ma’qul topmasligini ta’kidlashdi. Ayollar va bolalar oldida jinsiy mavzularni ko‘tarish “uyat” tamoyili bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklanadi.

Zamonaviy va klassik nemis adabiyotlaridan tanlab olingan matnlarda, ayniqsa, o‘lim yoki shaxsiy fojea tasvirlangan epizodlarda evfemistik nutqiy vositalar kuzatildi. O‘zbek adabiyotida ham shunga o‘xshash ravishda nozik mavzular bevosita emas, balki ishora yoki muloyim so‘zlashuv shaklida ifodalanishi aniqlandi. Bu hol madaniy an’analardan tashqari, adabiy uslubning bevosita badiiy effektga yo‘naltirilganini ham ko‘rsatadi.

Har ikkala madaniyatda evfemizm va tabu asosan “nozik” yoki “uyatli” hisoblangan mavzularni cheklash, shuningdek, suhbatdoshga noqulaylik tug‘dirmaslik maqsadida qo‘llaniladi.

⁴⁸⁴ R.Kachler. Meine Trauer wird dich finden! Ein neuer Ansatz in der Trauerarbeit. – 9. Auflage. – Freiburg: Kreuz Verlag, 2005. – S. 69.

Nemis jamiyatida sekulyar an‘analar, siyosiy to‘g‘ri so‘zlash (political correctness) va shaxsiy erkinlik ustunroq bo‘lgani uchun, diniy yoki urf-odat bilan bog‘liq tabular ancha cheklangan. Biroq ayrim mavzularda (masalan, natsistlar davri, irqiy masalalar) juda keskin tabu mavjudligi qayd etildi.

O‘zbek jamiyatida diniy-an‘anaviy qadriyatlar, sharqona odob va “hayoli bo‘lish” tamoyili ota-onalar tomonidan bolalikdan singdirilishi natijasida, jinsiy mavzular va pul bilan bog‘liq suhbatlarda bevosita ifodalash odobsiz sanalishi hamon ustunlik qiladi.

Mavzu (tabu sohasi)	O‘zbek oilasi nutqida	Nemis oilasi nutqida
O‘lim	vafot etdi, olamdan o‘tdi (hurmatli uslubda) bilan aytiladi; marhum so‘zi ishlatilib, diniy duo bilan eslanadi. To‘g‘ridan o‘ldi deyish odobsizlik sanaladi.	ist verstorben (vafot etdi), von uns gegangen (bizdan ketdi) kabi so‘zlar ishlatiladi. Ammo kundalik hayotda er ist gestorben deyish ham mumkin, ayniqsa mavzu unchalik nozik bo‘lmasa. Bola bilan gaplashganda “im Schlaf gegangen” (uyquda ketdi) kabi yumshoq ifoda qo‘llanadi.
Jinsiy munosabat	Ochiq tilga olinmaydi; <i>er-xotin bo‘lish, yaqinlik qilish</i> kabi yumshoq iboralar yoki <i>uyatli mavzu</i> deb berkitiladi. Jinsiy a‘zolar nomi o‘rniga “onomatopoetik” yo‘llar (masalan, “ <i>falon joy</i> ”) bilan ishora qilinadi.	Nisbatan ochiqroq muhokama qilinishi mumkin, lekin hamon muloyim uslubda: miteinander schlafen (“birga uxlash”) eng keng tarqalgan evfemizm. Oilada jinsiy tarbiya mavzusi bo‘lsa, to‘g‘ridan anatomik atamalar ishlatiladi, lekin noqulaylik sezilsa Bienen und Blumen (ari va gullar haqidagi tashbeh) kabi priyomlar qo‘llanishi mumkin. Ota-ona farzandiga Geschlechtsverkehr (jinsiy aloqa) so‘zini ishlatishi odatiy, chunki bu klinik-neutral atama.
Tana funksiyalari	Hojatga borish (“ehtiyojga borish”), palov oshqozonimga og‘ir keldi (hazm bo‘lmayapti) kabi iboralar. Qo‘pol so‘z – masalan, tezak (axlat) – hech qachon bevosita aytilmaydi. Bolalar bilan “peshob qilmoq” o‘rniga “cho‘pchak aytmoq” kabi mahalliy atamalar qo‘llanadi.	Auf die Toilette gehen (hojatxonaga bormoq) – bu allaqachon muloyim ibora hisoblanadi va odatiy. Kattalar urinieren demaydi (juda rasmiy), lekin bolalar bilan Pipi machen (pipi qilish) kabi sodda so‘zlar ishlatiladi. Jamoat joyda baland ovozda bu mavzuni muhokama qilish odobsizlik, lekin oilada ko‘proq erkin. Shunga qaramay, axlat qilish o‘rniga groß müssen (“katta hojatga ehtiyoj”) deyish mumkin.
Kasallik	Og‘ir kasal, betob bo‘lib yotibdi (hatto o‘lim oldidan ham “ketishga chog‘lanib qolgan” deb ishora	schwere Krankheit (og‘ir kasallik) yoki tibbiy atamalar bevosita qo‘llanadi. Lekin Cancer o‘rniga Krebs (qisqichbaqa)

	qilinadi). Saraton – <i>“yumronka”</i> (ba‘zi joylarda), sili – <i>“uzun kasal”</i> . Jinni so‘zi ishlatmaslik uchun ruhiy xasta deyishadi.	aslida nemis tilida bu so‘z allaqachon evfemizm bo‘lib ulgurgan. Ruhiy kasalliklarni psychische Probleme (ruhiy muammolar) deb yumshatish odatiy. Oila ichida ham tuzatib aytishadi: masalan, <i>“er hat ein Problem”</i> (muammosi bor) – aslida biron bir kasalligi bor demoqchi bo‘ladi.
Pul va boylik	Ochig‘ini aytish odobsizlik: daromad so‘ralganda <i>“yaxshi yetib turibdi”</i> yoki <i>“bir amallayapmiz”</i> , boy odam haqida <i>“cho‘ntagi qappaygan”</i> (kinoya) yoki <i>“risqi ulug‘”</i> (yaxshi ta‘minlangan) kabi xalqona iboralar. Kambag‘al o‘rniga <i>“qiynalib yuribdi”</i> yoki <i>“kamxarj bo‘lib qolgan”</i> deyiladi.	Maosh yoki boylik haqida so‘rash – tabu hisoblanadi. Nemislar daromadni tabu mavzu deb bilishadi, hatto yaqinlar orasida ham. Savol berilsa, <i>“Genug zum Leben”</i> (<i>“yashashga yetadi”</i>) yoki <i>“läuft schon”</i> (<i>“hammasi joyida”</i>) kabi umumiy javob bilan cheklanishadi. O‘z boyligini ham ko‘z-ko‘z qilish madaniyatsizlik sanaladi. Biroz maqtanilganda ham hazil bilan <i>“ich schwimme im Geld nicht”</i> (<i>“pulda suzmayapman”</i>) deyishi mumkin.
Siyosat va tarix	Ochiq tanqid qilish xavfli deb o‘rgatilgan; shu sababdan hukumat – <i>“tepadagilar”</i> , prezident – <i>“katta odam”</i> kabi so‘zlar bilan ifodalanadi. Noqulay siyosiy voqealar <i>“zamona qiyin”</i> kabi umumlashma bilan tilga olinadi.	Siyosatni muhokama qilish mumkin, lekin bahsli mavzular (migratsiya, diniy e‘tiqod) atrofida ehtiyot bo‘lishadi. Oilada turli qarashlar bo‘lsa, odatda mojaro chiqmasligi uchun mavzuni chuqurlashtirmaydilar.
Din va e‘tiqod	Diniy atamalar hurmat bilan ishlatiladi: <i>“astag‘firillo”</i> (so‘kinish yoki yomon gap eshitilganda), <i>“Xudo ursin”</i> (ont ichish) – bu ham aslida Xudoni behuda tilga olmaslikka harakat. Oila muhokamalarida din hamma uchun o‘z-o‘zidan tushunarli bo‘lgani uchun, evfemizmga ehtiyoj kam. Faqat salbiy holatlarda <i>“shayton urdi”</i> deyish o‘rniga <i>“boshiga bir balo yog‘ildi”</i> kabi ifodalar ishlatishadi.	Ko‘p nemis oilalari uchun <i>din mavzusi shaxsiy ish</i> hisoblanadi. Kimning qaysi dinda ekanini so‘rash odobsizlik. O‘z oilasida ham agarda hamma bitta e‘tiqodda bo‘lsa ham, dinga doir masalalarda ehtiyotkor ohang saqlanadi. Masalan, <i>“Himmeldonnerwetter!”</i> kabi qasamlar (Xudoni eslatib qarg‘ash) eskirgan va bugun kam ishlatiladi. Bolalarga diniy tushunchalarni tushuntirishda ham, agar oila dindor bo‘lmasa, <i>“ertak”</i> shaklida gapirish mumkin.

Olingan natijalar har ikkala jamiyatda tabu va evfemizm universal hodisa sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Biroq ular madaniy qadriyatlar, tarbiya uslublari va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqdir. Nemis oilaviy muloqotidagi asosiy cheklovlar siyosiy to‘g‘ri so‘zlash, shaxsiy

hayot daxlsizligi va tarixiy fojialarni ehtiyotkor muhokama qilishda namoyon bo‘lsa, o‘zbek oilalarida din hamda an’anaviy “uyat” tushunchasi evfemizm va tabuning bosh omili sifatida ko‘rinadi.

Bu esa, avvalo, chet tili o‘rganish hamda madaniyatlararo muloqot jarayonlarida e’tibor berilishi lozim bo‘lgan jihatdir. Zero, bitta madaniyatda odatiy hisoblangan mavzuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tilga olish yoki qattiq kamsituvchi (yoki uyatli) bo‘lishi mumkin bo‘lgan leksik birlikni boshqa madaniyatda ham to‘g‘ri tatbiq etish har doim ham samara bermaydi. Tarjima sohasi uchun ham bu masala dolzarbdir: badiiy matnlarda yoki og‘zaki tarjima jarayonida “oddiy” ko‘ringan so‘z aslida manzil tilda birmuncha noo‘rin bo‘lib qolishi ehtimoli bor.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tabu va evfemizmlar ijtimoiy me’yorlarni targ‘ib etish, suhbatdoshlarga nisbatan hurmatni saqlash, noqulaylikdan qochish hamda “yuqori” mavqeni ta’minlash vazifalarini bajaradi. O‘zbek oilalarida bu hol, ko‘pincha, bolalikdan shakllangan tarbiya hamda diniy-an’anaviy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, nemis oilalarida shaxsiy hayotga nisbatan hurmat, siyosiy ehtiyotkorlik va sekulyar ruhiyat evfemizm hamda tabuni belgilovchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotning dolzarbligi til odobining kulturelle Identität (madaniy o‘zlik) bilan qanday murakkab aloqaga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Tabu va evfemizmlarning aynan oilaviy suhbatlarda namoyon bo‘lishi avlodidan-avlodga o‘tayotgan axloqiy me’yorlarning qanchalik barqaror saqlanayotganini ko‘rsatuvchi indikator sifatida qaralishi mumkin. Tadqiqotda qo‘llanilgan kuzatuv va badiiy manba tahlili esa bu fenomenning real kontekstlardagi ko‘rinishlarini chuqurroq tushunish va sistemalashtirishga xizmat qildi.

Kelgusida anketa so‘rovnomalari va miqdoriy tahlil metodlarini yanada kengroq qo‘llash orqali, avvalo, ma’lumotlar hajmini oshirish, shuningdek, mintaqaviy yoki yoshga oid tafovutlarni ham aniqroq o‘rganish rejalashtirilgan. Bu, o‘z navbatida, turli madaniyatlararo muloqotlarda yuzaga keladigan kommunikativ tushunmovchiliklar yoki xato talqinlarni oldini olishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tabu va evfemizm har qanday jamiyatda ham universal hodisa bo‘lib, til va madaniyat chorrahasida o‘ziga xos funksiyani bajaradi. O‘zbek va nemis oilaviy muloqoti misolida aniqlangan xususiyatlar, avvalo, bunday cheklovlar va yumshatuvchi ifodalar jamiyatning ijtimoiy me’yorlari, tarbiya tamoyillari va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi. O‘zbek madaniyatida din va an’anaviy “uyat” tushunchasi jinsiy mavzulardan tortib pul masalasigacha ko‘plab holatlarda bevosita ifodalashdan tiyilishga sabab bo‘lsa, nemis jamiyatida shaxsiy hayot daxlsizligi, siyosiy to‘g‘ri so‘zlash (political correctness) va ayrim tarixiy jarayonlarni mulohazakorlik bilan muhokama qilish tamoyillari kuchli ekani aniqlandi.

Tabu va evfemizmlardan foydalanish, bir tomondan, hurmat va odobni saqlash, suhbatdoshga noqulaylik tug‘dirmaslikni ta’minlasa, boshqa tomondan, an’anaviy yoki siyosiy-chegaraviy sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin. Ushbu cheklovlar, ayniqsa, oilaviy suhbatlar va norasmiy muloqotlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Tadqiqot jarayonida badiiy

asarlarning tahlili ham shuni ko‘rsatdiki, turli janrlarda yozilgan matnlarda ham nozik mavzularni ifodalashda adabiy evfemizmlardan foydalanish kuzatiladi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatning madaniy xotirasini shakllantiruvchi muhim omil sifatida e‘tirof etiladi. Ushbu ishning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, chet tili o‘rganish va madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida tabu va evfemizmlarni hisobga olish, noqulay vaziyatlarni kamaytirish hamda adekvat muloqotni ta‘minlash imkonini beradi. Tarjima sohasida ham muayyan atamaning bevosita emas, balki yumshatuvchi yoki o‘zgacha ma‘no beruvchi shakllarini topish, original matndagi mazmun va ruhni to‘g‘ri yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ushbu mavzuni miqdoriy tahlil, anketa yoki onlayn so‘rovnomalar yordamida kengroq ko‘lamda o‘rganish, regionlar va yosh guruhlari bo‘yicha tafovutlarni aniqlash imkoni mavjud. Shuningdek, global axborot makonida yangi so‘zlar, internet memlari yoki ijtimoiy tarmoqlar nutqi orqali o‘zgargan tabu va evfemizmlarning vujudga kelishi ham alohida tadqiqotlar mavzusi bo‘la oladi. Shu tariqa, turli madaniyatlarda mavjud nutqiy cheklovlarining empirik va nazariy tahlili tilshunoslik, sotsiologiya va antropologiya kesishmasidagi keng ko‘lamli masalalarni oydinlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.Khairullina, F.Fatkullina, Q.So, Z.Lin. Taboo As A Linguistic And Cultural Phenomenon // Social and Cultural Transformations in the Context of Modern Globalism» Dedicated to the 80th Anniversary of Turkayev Hassan Vakhitovich. – Grozny, 27-29, 2020.
2. S.Samiyeva. Taboo and euphemism in uzbek and tajik languages // World Bulletin of Social Sciences (WBSS), 2023. № 27. – P. 64-68.
3. H.Ismoilova, Z.Xatamova, D.Burxanova. Classification and Types of Euphemisms // Journal INX – A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.Vol. 6, 2020. – P. 53-57.
4. R.Kachler. Meine Trauer wird dich finden! Ein neuer Ansatz in der Trauerarbeit. – 9. Auflage. – Freiburg: Kreuz Verlag, 2005. – S. 69.